

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2024-yil 4-son

VOLUME 8 / ISSUE 4 / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.4.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref

Content
Registration

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK
UNIVERSITETI**

"Yuridik fanlar axborotnomasi –
Вестник юридических наук – Review
of law sciences" huquqiy ilmiy-amaliy
jurnali O'zbekiston matbuot va axborot
agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda
0931-sonli guvohnoma bilan davlat
ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy
ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi
jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat
yuridik universitetiga tegishli. Barcha
huquqlar himoyalangan. Jurnal material-
laridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish
muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo'yicha mas'ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

Y. Yarmolik, Y. Mahmudov,
E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar,
Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Nashriyot litsenziyasi

№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 24.12.2024-yilda
bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4.

Shartli bosma tabog'i: 5

Adadi: 100. Buyurtma: № 158.

Bosmaxona litsenziyasi

29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili:

100047. Toshkent shahri,

Sayilgoh ko'chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

I. Rustambekov – Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b.,
yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

MAS'UL MUHARRIR

O. Choriyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Tahririy-nashriyot
bo'limi boshlig'i

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

A. Saidov – Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy
markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor (Toshkent,
O'zbekiston)

E. Juchniewicz – Gdansk universiteti professori, huquq doktori (Gdansk,
Polsha)

A. Younas – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Pekin, Xitoy)

O. Okyulov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar
doktori (Toshkent, O'zbekiston)

J. Nematov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., yuridik
fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

Sh. Asadov – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat
boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent,
O'zbekiston)

M. Aminjonova – O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish
akademiyasi dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

M. Rahimov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar
bo'yicha falsafa doktori (Toshkent, O'zbekiston)

O. Narzullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik
fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

B. Murodov – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi
professor, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

A. Muxamedjanov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

N. Niyazova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b.,
pedagogika fanlari nomzodi (Toshkent, O'zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Вестник юридических наук – Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Law Sciences» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 0931.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:

Е. Ярмолик, Й. Махмудов,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Ф. Мухаммадиева, М. Шарифова,
Ш. Бекназарова

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1385.

Издательская лицензия

от 29.11.2023 г № 174625

Журнал передан в типографию
24.12.2024.

Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 5. Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 158.

Лицензия типографии

от 29.11.2023. № 174626

Отпечатано в типографии
Ташкентского государственного
юридического университета.
100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

И. Рустамбеков – доктор юридических наук, профессор, врио ректора Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

В. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

О. Чориев – начальник редакционно-издательского отдела Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

А. Саидов – доктор юридических наук, профессор, директор Национального центра по правам человека Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Э. Юхневич – доктор права, профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Юнас – доктор философии по юридическим наукам (Пекин, Китай)

О. Окюлов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ш. Асадов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Аминжонова – доктор юридических наук, доцент Правоохранительной академии Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Рахимов – доктор философии по юридическим наукам, доцент Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

О. Нарзуллаев – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

В. Муродов – доктор юридических наук, профессор Академии МВД Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

А. Мухамеджанов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Н. Ниязова – кандидат педагогических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” legal scientific-practical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020, with certificate number 0931.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

Y. Yarmolik, Y. Makhmudov,
E. Mustafae, K. Abduvalieva,
F. Mukhammadieva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Publishing department address:

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Subscription index: 1385.

Publishing license

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 24.12.2024.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 5.

Units: 100. Order: № 158.

Printing house license

№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgokh street, 37.

© Tashkent State University of Law

CHIEF EDITOR

I. Rustambekov – Acting Rector of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

EXECUTIVE EDITOR

O. Choriev – Head of the Publishing Department of Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD MEMBERS

A. Saidov – Director of the National Centre for Human Rights of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor (Tashkent, Uzbekistan)

E. Juchniewicz – Professor of the University of Gdansk, Doctor of Law (Gdansk, Poland)

A. Younas – Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Beijing, China)

O. Okyulov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Nematov – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Sh. Asadov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Aminjonova – Associate Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Rakhimov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

O. Narzullaev – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

B. Murodov – Professor of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

A. Muxamedjanov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

N. Niyazova – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Pedagogical Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 8 **AXROROV ADXAMJON ASRORKUL O'G'LI**
Davlat ekologik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy jihatlari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 22 **USMONOVA MUNISXON YO'LDOSH QIZI**
Nizoli va o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimlar: yangi klassifikatsiya
- 32 **SHAIMARDANOVA DILAFRUZ DILMURATOVNA**
Raqamli obyektlar va meros ochilgan joy: transchegaraviy merosga da'vatlar
- 42 **LAPASOV ASLIDDIN TO'LQIN O'G'LI**
Virtual makonda mualliflik huquqini himoya qilish va javobgarlik masalalari

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 53 **XABIBULLAYEV DAVLATJON YULCHIBOYEVICH**
Fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplarini takomillashtirish masalalari
- 66 **XUDOYNAZAROV DADAXON AVAZ O'G'LI**
Fuqarolik va iqtisodiy protsessda sudya yordamchisining huquqiy maqomi

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 73 **VALIJONOV DALER DILSHODOVICH**
Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Osiyo kelajagi: Osiyoda o'zaro hamkorlik va ishonch choralarini konferensiyasi uchun g'oyalar

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

- 81 **MELIYEV XUDOYOR XURRAMOVICH**
Litsenziyalash tizimi islohotida korrupsiyaga qarshi kurashish omilini kuchaytirish

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО.
ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

8 **АХРОРОВ АДХАМЖОН АСРОКУЛ УГЛИ**
Организационно-правовые аспекты осуществления государственного экологического контроля

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО.
МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

22 **УСМОНОВА МУНИСХОН ЮЛДОШ КИЗИ**
Оспоримые и ничтожные сделки: новая классификация

32 **ШАЙМАРДАНОВА ДИЛАФРУЗ ДИЛМУРАТОВНА**
Цифровые объекты и место открытия наследства: вызовы трансграничного наследования

42 **ЛАПАСОВ АСЛИДДИН ТУЛКИН УГЛИ**
Вопросы защиты авторских прав и ответственности в виртуальном пространстве

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО.
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. АРБИТРАЖ И МЕДИАЦИЯ

53 **ХАБИБУЛЛАЕВ ДАВЛАТЖОН ЮЛЧИБОЕВИЧ**
Вопросы совершенствования принципов гражданского судопроизводства

66 **ХУДОЙНАЗАРОВ ДАДАХОН АВАЗ УГЛИ**
Правовой статус помощника судьи в гражданском и экономическом процессе

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

72 **ВАЛИЖОНОВ ДАЛЕР ДИЛШОДОВИЧ**
Будущее Азии против коррупции: идеи для Совещания по взаимодействию и мерам доверия в Азии

12.00.12 – ПРОБЛЕМЫ КОРРУПЦИИ

81 **МЕЛИЕВ ХУДОЁР ХУРРАМОВИЧ**
Усиление антикоррупционного фактора в реформе системы лицензирования

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCE AND CUSTOMS LAW

- 8 **AKHROROV ADKHAMJON ASRORKUL UGLI**
Organizational and legal aspects of implementation of state environmental control

12.00.03 – CIVIL LAW. ENTREPRENEURSHIP LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 22 **USMANOVA MUNISKHON YULDOSH KIZI**
Disputed and void transactions: a new classification
- 32 **SHAYMARDANOVA DILAFRUZ DILMURATOVNA**
Digital objects and legacy opening: cross-border heritage calls
- 42 **LAPASOV ASLIDDIN TULKIN UGLI**
Copyright protection and liability issues in virtual space

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

- 53 **VALIJONOV DALER DILSHODOVICH**
The future of Asia against corruption: ideas for the conference on interaction and confidence building measures in Asia
- 66 **KHUDOYNAZAROV DADAHON AVAZ UGLI**
Legal status of the assistant judge in civil and economic proceedings

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

- 73 **VALIJONOV DALER DILSHODOVICH**
The future of Asia against corruption: ideas for the conference on interaction and confidence building measures in Asia

12.00.12 – CORRUPTION PROBLEMS

- 81 **MELIYEV KHUDOYOR KHURRAMOVICH**
Strengthening the anti-corruption factor in the reform of the licensing system

Kelib tushgan / Получено / Received: 04.11.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 17.12.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2024

DOI: 10.51788/tsul.rols.2024.8.4./HZYR3012

UDC: 342.5:504.75(045)(575.1)

DAVLAT EKOLOGIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIIY-HUQUQIY JIHLTLARI

Axrorov Adxamjon Asrorkul o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasi mudiri o'rinbosari,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0002-8193-167X

e-mail: adxam.axrorov@mail.ru

Annotatsiya. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashda sohada nazoratni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organlar faoliyati muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda mamlakatimizda mavjud ekologik holatning yomonlashuvi sohadagi nazorat ta'sirchanligi pastligi, shuningdek, nazorat qiluvchi organlar faoliyati to'g'ri yo'lga qo'yilmaganini ko'rsatmoqda. Ekologik barqarorlikni ta'minlash va sohada mavjud muammolarni bartaraf etish zarurati nazorat qiluvchi organlar faoliyatining ilmiy va huquqiy asoslarini tahlil qilishni talab qilmoqda. Mazkur maqolada sohada nazoratni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organlar faoliyati tahlil qilingan. Muallifning qayd etishicha, muayyan nazorat qiluvchi organning moliyaviy ta'minoti ijro hokimiyati organi tomonidan hal qilinsa yoki faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjat Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlansa, shuningdek, ma'lum vazirlik tarkibida tashkil etiladigan bo'lsa, uning faoliyatiga bevosita ta'sir etish imkoniyati saqlanib qoladi. Bu esa, o'z navbatida, davlat ekologik nazorati samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ekologiya sohasida davlat nazoratini amalga oshiruvchi organ Vazirlar Mahkamasi yoki birorta vazirlik tarkibida emas, balki Prezident huzurida tashkil etilishi lozimligi taklif qilingan. Shuningdek, maqola yakunida qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat ekologik nazorati, ekologik ekspertiza, davlat boshqaruvi, funksiya, atrof-muhit, ekologiya, konstitutsiyaviy huquq, ijro etuvchi hokimiyat organlari, jamoatchilik ekologik nazorati

ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЭКОЛОГИЧЕСКОГО КОНТРОЛЯ

Ахроров Адхамжон Асроркул угли,

доктор философии по юридическим наукам е (PhD),

заместитель заведующего кафедрой «Административное и финансовое право»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Важное значение в обеспечении рационального использования природных ресурсов имеет деятельность специально уполномоченных органов, осуществляющих контроль в сфере экологии и охраны окружающей среды. Ухудшение экологической обстановки, сложившейся сегодня в нашей стране, свидетельствует о низкой эффективности контроля в отрасли, а также о том, что деятельность контролирующих органов не налажена должным

образом. Необходимость обеспечения экологической устойчивости и устранения имеющихся проблем в отрасли требует анализа научно-правовых основ деятельности контролирующих органов. В данной статье проанализирована деятельность специально уполномоченных органов, осуществляющих контроль в сфере. Автор отмечает, что возможность непосредственного воздействия на деятельность конкретного контролирующего органа сохраняется в том случае, если финансирование его деятельности обеспечивается органом исполнительной власти или его деятельность регулирует нормативно-правовой акт, утверждаемый Кабинетом Министров, или он создан в структуре конкретного министерства. Это, в свою очередь, отрицательно сказывается на эффективности государственного экологического контроля. Поэтому автором предложено создать орган, осуществляющий государственный контроль в сфере экологии, при Президенте, а не при Кабинете Министров или каком-либо министерстве. В конце статьи приводятся разработанные предложения по совершенствованию законодательства.

Ключевые слова: государственный экологический контроль, экологическая экспертиза, государственное управление, функции, окружающая среда, экология, конституционное право, органы исполнительной власти, общественный экологический контроль

ORGANIZATIONAL AND LEGAL ASPECTS OF IMPLEMENTATION OF STATE ENVIRONMENTAL CONTROL

Akhrorov Adkhamjon Asrorkul ugli,

Deputy Head of the Department of Administrative and Financial Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. *The activities of specially authorized bodies carrying out control in the field of ecology and environmental protection, ensuring the rational use of natural resources, are of great importance. Today, the deterioration of the existing environmental situation in our country indicates the low effectiveness of control in the sphere, as well as the improper organization of the activities of regulatory bodies. The need to ensure environmental sustainability and address existing problems in this area requires an analysis of the scientific and legal foundations of the activities of regulatory bodies. This article analyzes the activities of specially authorized bodies that exercise oversight in this area. According to the author, if the financial support of a specific supervisory authority is decided by the executive body or if the normative legal act regulating its activities is approved by the Cabinet of Ministers, as well as if it is created within the structure of a certain ministry, the possibility of directly influencing its activities remains. This, in turn, negatively affects the effectiveness of state environmental control. Therefore, it is proposed that the body exercising state control in the field of ecology should be established under the President, not within the Cabinet of Ministers or any other ministry. Also, at the end of the article, proposals were developed to improve the legislation.*

Keywords: *state environmental control, environmental expertise, public administration, function, environment, ecology, constitutional law, executive authorities, public environmental control*

Kirish

So'nggi yillarda mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning insonlar sog'lig'iga zararli ta'sirining oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holat sifatini oshirish

uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmogda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston - 2030 strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida ham aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish

strategiyaning asosiy g'oyalaridan biri sifatida belgilandi. Mamlakatimizda 2025-yilning "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot" deb nomlanishi ham ushbu sohadagi islohotlarni izchil davom ettirishga zamin yaratadi.

Amalga oshirilayotgan islohotlarga qarab, sohadagi muammolar to'liq bartaraf etilganicha yo'q. Xususan, daraxtlar va butalar kesilishiga e'lon qilingan moratoriy davrida 44 mingga yaqin, shundan 9,5 mingga yaqin qimmatbaho daraxtlar noqonuniy kesilishi natijasida tabiatga 36 milliard so'mlik zarar yetkazilgan. Bunday holatlarning oldini olishda davlat nazoratining roli beqiyos.

Ekologiya sohasi, xususan, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida qonuniylikni ta'minlashda nazorat instituti alohida ahamiyatga ega. Ekologiya sohasidagi mavjud muammolarni bartaraf etish, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashga qaratilgan asosiy huquqiy vositalardan biri davlat ekologik nazorati hisoblanadi. Nazoratsiz muayyan sohada qonuniylikni ta'minlash imkoni mavjud emas. Shu sababli nazorat davlat boshqaruvi-ning ajralmas funksiyalaridandir.

Material va metodlar

Tadqiqot doirasida huquqiy fanlarda ilmiy metodlar bo'lgan ilmiylik, xolislik, taqqoslash, qiyosiy-huquqiy, induksiya va deduksiya hamda boshqa metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Ilmiy adabiyotlar tahlili huquqshunos olimlar o'rtasida boshqaruv funksiyasi sifatida nazorat to'g'risida yagona fikr mavjud emasligini ko'rsatadi. Jumladan, N. Ismoilovning ta'kidlashicha, "nazorat – maxsus vakolatli organlarning qonuniylik buzilishini aniqlash maqsadida bo'ysunmagan organlar yoki shaxslar ustidan olib boradigan doimiy, muntazam kuzatuv" [1, 507-b.].

A. Fayol esa nazorat barcha munosabatlar tasdiqlangan reja, doktrinalar va amaldagi prinsiplar bo'yicha ketayotganini tasdiqlashdan iborat ekanini ta'kidlaydi [1, 507-b.].

K. Killen ushbu fikrni ma'qullab nazorat mavjud natijalarning vazifalarga mosligini taqqoslash va tekshirish jarayoni sifatida ta'riflaydi [2, 142-b.].

A. Kolmikovaning fikriga ko'ra, "nazorat davlat hokimiyati organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan qonun va qonunosti hujjatlari, ularning talablariga qat'iy va og'ishmay ijro etishga qaratilgan" [3].

Mazkur fikrga qo'shimcha qilgan A. Omarov nazorat bevosita ijtimoiy tizim faoliyatini yaxshilashning samarali metod va yo'llarini topish, ilg'or tajribani aniqlashtirishga qaratilganini ta'kidlaydi va nazorat tushunchasi nafaqat amalga oshirilayotgan faoliyatning rejadagidek ketayotganini, balki aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishning samarali yechimini ham o'z ichiga olishini qo'shimcha qiladi. Y. Tixomirov ham nazorat faqatgina qonuniylikni tekshirish emasligini va undan ko'zlangan maqsadlardan biri mavjud kamchiliklarni bartaraf etish ekanini tasdiqlaydi [4].

Bizning fikrimizcha, A. Omarov va Y. Tixomirov tomonidan keltirilgan fikrlar to'g'ri va nazoratdan ko'zlangan maqsad-mazmuni ham ochib beradi.

Bir qator yuridik adabiyotlarda nazoratni amalga oshirish jarayonida qonun buzilishi aniqlansa, ma'muriy majburlov choralari qo'llanishi mumkinligi ta'kidlanadi [5, 45-b.; 6].

Ekologiya sohasidagi huquqshunos olimlar tomonidan ham nazorat tushunchasi tahlil qilingan. Biroq ularda asosiy e'tibor atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ekologik nazoratga qaratilgan.

Xususan, Sh. Fayziyevning ta'kidlashicha, "atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat ekologik nazorati, bu – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining atrof-muhit holatini tekshirish, ishlab chiqarishda barcha vazirliklar, idoralar, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ekologik qonunchilik hamda ekologik xavfsizlik talablariga rioya

etilishi ustidan nazorat qilish va talablarni aniq bajarishga qaratilgan qat'iy choralar ko'rish, shuningdek, ehtimoliy huquqbuzarliklarni bartaraf etishga qaratilgan (kompleks va tizimli nazorat asosidagi) faoliyat" [7].

Y. Jurayevning ta'kidicha, "ekologik nazorat korxonasi, muassasa, tashkilotlar, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va fuqarolar tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha talablarga rioya etilishini tekshirish, atrof-muhit holatini o'rganish va monitoringini yuritish, ekologik ekspertiza o'tkazish, shuningdek, ushbu sohada boshqa tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat" [8].

T. Makarova fikriga ko'ra, "ekologik nazorat – atrof-muhitni muhofaza qilish, davlat organlarining tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, takror ishlab chiqarishni tashkil etish, ekologik xavfsizlikka erishish, shuningdek, qonun ustuvorligi va fuqarolar huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlarini ta'minlashga qaratilgan faoliyati" [9, 402-b.].

O. Sarkisovning qayd etishicha, "ekologik nazorat atrof-muhitni muhofaza qilishni boshqarishning eng keng tarqalgan tashkiliy-huquqiy vositalaridan biri bo'lib, u tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitga ta'sir qilish bo'yicha faoliyatning barcha bosqichlarida amalga oshiriladi. Davlat ekologik nazorati davlat nomidan maxsus vakolatli organlar va mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. U idoradan tashqari va idoraviy xarakterga ega bo'lib, atrof-muhitni muhofaza qilish davlat boshqaruvi funksiyalaridan biri hisoblanadi, zarurat tug'ilganda ma'muriy majburlov choralari qo'llaydi (faoliyatni to'xtatib turish, tabiiy resurslardan foydalanish huquqidan mahrum qilish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jarama va boshqa ma'muriy jazolar)" [10, 335-b.].

A. Vinokurov ham ushbu fikrni ma'qullaydi [11, 234-b.]. M. Brinchukning ta'kidlashicha, "ekologik nazorat – vakolatli

organlarning atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi va bajarilishini tekshirish bo'yicha faoliyati. Uning 3 ta asosiy funksiyasi mavjud: profilaktik, axborot va jazolash" [11].

Yuqorida keltirilgan huquqshunos olimlar fikrlari tahlili asosida xulosa qilishimiz mumkin, davlat ekologik nazorati – vakolatli davlat organlari tomonidan muntazam ravishda amalga oshiriladigan atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda qonuniylikni ta'minlash vositasi.

Shuningdek, mavjud ekologik qonunchilik tahlili maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladigan va nazorat faoliyati obyektiga ko'ra ekologik nazoratning quyidagi turlari mavjud ekanligidan dalolat beradi:

1) davlat ekologik nazorati ("Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonun, 11-modda);

2) atmosfera havosini muhofaza qilish ustidan nazorat ("Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun, 28-modda);

3) hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi davlat nazorati ("Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonun, 22-modda);

4) o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida davlat nazorati ("O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonun, 10-modda);

5) o'rmonlarni muhofaza qilish, himoya qilish, ko'paytirish, takroriy ko'paytirish, qayta tiklash, ularning mahsuldorligini oshirish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat nazorati ("O'rmon to'g'risida"gi Qonun, 22-modda);

6) yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati (O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi, 5-modda);

7) chiqindi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish to'g'risidagi qonunchilik talablariga

rioya etilishi ustidan davlat nazorati (“Chiqindilar to‘g‘risida”gi Qonun, 7-modda);

8) suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati (“Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonun, 9-modda);

9) muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat nazorati (“Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonun, 9-modda).

Ko‘rinib turibdiki, “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi Qonun mavjudligiga qaramasdan, ekologik nazoratni amalga oshiruvchi subyektlarning nazoratga oid faoliyati bir nechta qonun bilan tartibga solinmoqda. Chunki qonunda mavjud normalarning aksariyati deklarativ xususiyatga ega va sohada nazorat mavjud ekanligini bildiradi xolos. Lekin ushbu qonun nazoratni amalga oshirish tartib-taomillarini o‘zida aks ettirmaydi. Ya‘ni unda nazoratni amalga oshirish mexanizmlari mavjud emas.

Ekologik nazoratni amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lgan subyektlarning huquq va majburiyatlari chegarasi aniq belgilanmagan, vazifalarning takrorlanishi va tarqoqligi ekologik nazoratni amalga oshirish samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Fikrimizcha, sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni kodifikatsiyalashtirish lozim. Yagona normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish zarurati va maqsadga muvofiqligi bir qator olimlar tomonidan ham ilmiy jihatdan asoslantirib berilgan [12, 162-b.; 13; 14]. Ijtimoiy munosabatni tartibga soluvchi yagona huquqiy asosning yaratilishi nazoratni amalga oshiruvchi subyektlar faoliyatining barqarorligi va samaradorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Ta‘kidlash joizki, sohani tartibga soluvchi bir nechta qonunchilik hujjatlarida bir xil norma takrorlangani holatlarini ham kuzatishimiz mumkin. Jumladan, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 29-moddasi hamda “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasida mutlaqo bir xil norma

aynan takrorlangan. Normativ-huquqiy hujjatlardagi takrorlanishlarning oldini olishda mavjud takrorlanishni bartaraf etish maqsadga muvofiq.

“Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasida ekologik nazorat tushunchasining ta‘rifi keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra, ekologik nazorat atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo‘yishga, tabiatni muhofaza qilish faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va jamoatchilik chora-tadbirlari tizimidir.

Shuningdek, mazkur qonunga muvofiq, ekologik nazoratning davlat, idoraviy, ishlab chiqarish hamda jamoatchilik ekologik nazorati kabi turlari mavjud.

O. Sarkisov ekologik nazoratni turlarga ajratishda uni amalga oshiruvchi subyektlar muhim rol o‘ynashini ta‘kidlaydi [10, 335-b.]. Bizning fikrimizcha, O. Sarkisov tomonidan keltirilgan fikr to‘g‘ri hisoblanadi. Chunki davlat ekologik nazorati faqatgina maxsus vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Ekologik nazoratni amalga oshirishda nazorat obyektini va nazoratni amalga oshiruvchi subyektlar huquqiy holati tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.

“Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, yer, yerosti boyliklari, suvlar, o‘simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi; atrof-muhitga ta‘sir ko‘rsatuvchi tabiiy va texnogen manbalar; atrof-muhit ifloslanishiga va tabiiy resurslardan nooqilona foydalanilishiga olib kelishi, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga tahdid solishi mumkin bo‘lgan faoliyat, harakat yoki harakatsizlik ekologik nazorat obyektini hisoblanadi.

Mazkur obyektlar ustidan ekologik nazorat O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi; maxsus vakolatli davlat organlari; mahalliy davlat hokimiyati organlari; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari; xo‘jalik yurituvchi subyektlar; fuqarolarning o‘zini o‘zi

boshqarish organlari; nodavlat notijorat tashkilotlari; fuqarolar tomonidan amalga oshiriladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, mazkur subyektlar ekologik nazorat qaysi turini amalga oshirishiga qarab bir-biridan farqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ekologiya sohasida umumiy nazoratni amalga oshiradi.

Davlat ekologik nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organlar tizimida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi muhim rol o'ynaydi. Chunki mazkur organ boshqa maxsus vakolatli davlat organlarining davlat ekologik nazorat sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi.

Mazkur sohadagi davlat ekologik nazorati samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillardan biri ushbu funksiyaning turli davlat organlari tomonidan amalga oshirilishi hisoblanadi. Xususan, "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog'-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi, Ichki ishlar vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi ekologik nazoratni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organlari ekanligi belgilangan.

Mazkur qonunning 12-moddasida esa mahalliy davlat hokimiyati organlari ham tegishli hududda davlat ekologik nazoratini amalga oshirishi belgilab qo'yilgan. Ushbu normalar tahlili davlat ekologik nazorati ham maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan, ham mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshirilishini ko'rsatadi. Ya'ni bitta funksiya bir nechta organ tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Bunday holat boshqa maxsus qonun hujjatlarida ham mavjud. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Atmos-

fera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Chiqindilar to'g'risida"gi, "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi va boshqa qonun hujjatlarida ham bu holat kuzatiladi. Lekin normativ-huquqiy hujjatlarda ularning bir-biridan farqi va chegarasi, amalga oshirish tartibi mavjud emas. Shuningdek, mazkur vazifa mahalliy davlat hokimiyati organlari uchun o'ziga xos bo'lmaganligi, ularda ushbu vazifani amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy mexanizmlar va kadrlar resurslari mavjud emasligi sababli amalda uning ijrosi boshqa maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshirilmogda.

Shu sababli nazorat funksiyasi takrorlanishining oldini olish hamda nazoratni amalga oshirish faoliyatiga aralashuvlarni bartaraf etish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlarining mazkur sohadagi vakolatini bekor qilish lozim. Tadqiqot ishi doirasida ekologiya sohasida faoliyat yuritayotgan xodimlar o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma natijalari ham fikrimiz asosli ekanligini ko'rsatadi. Mazkur so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 87,1 foizi "*Mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat ekologik nazoratni amalga oshirishga oid vakolatini bekor qilishga nisbatan munosabatingiz qanday?*" degan savolga "*Ijobiy*" deya javob bergan.

Qonunchilik hujjatlari tahlili ba'zi ekologik nazorat obyektlari ustidan davlat nazorati bir qancha organlar tomonidan amalga oshirilishi belgilangan holatlar mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini mahalliy davlat hokimiyati organlari, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, Qurilish va

uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiradi. Shunga qaramasdan, suvdan foydalanish ustidan davlat nazorati ko'zlangan maqsadga erishishga imkoniyat bermayapti. Xususan, 2020-yilda yerosti suvlaridan turli maqsadlarda foydalanilayotgan 7951 ta quduq xatlovdan o'tkazilganda ulardan 6963 tasida gidrogeologik xulosa, 7322 tasida quduq qazishga ruxsatnoma, 6358 tasida quduqning texnik pasporti, 5422 tasida suvdan maxsus foydalanish ruxsatnomasi mavjud emasligi aniqlangan [15].

Sh. Fayziyev davlat nazorati funksiyalarining turli davlat organlari o'rtasida taqsimlanishi bir-birini takrorlashga olib keladi va ekologik nazorat samaradorligini pasaytirishini ta'kidlaydi [7, 198-b.].

L. Gamidullayeva esa davlat ekologik nazorati samaradorligini oshirishning muhim jihati uni amalga oshiradigan davlat hokimiyati organlari vakolatlarini optimallashtirish ekanligini ta'kidlaydi [16].

Tadqiqot natijalari tahlili

Tadqiqot jarayonida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligida faoliyat yuritadigan xodimlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma ishtirokchilarining 77,4 foizi *"Siz ekologiya sohasidagi davlat nazoratining bir nechta organ tomonidan amalga oshirilishiga qanday qaraysiz?"* degan savolga *"Salbiy"* deb javob bergan.

Yuqoridagi fikrlar tahlili asosida suvdan foydalanish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish yagona organ tomonidan amalga oshirilishi nazoratdan ko'zlangan maqsadga erishishga imkoniyat yaratishini ta'kidlash lozim.

Shu sababli ekologik nazoratni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini qayta ko'rib chiqish va nazorat funksiyasini yagona organga o'tkazishni maqsadga muvofiq hisoblaymiz.

Bizning fikrimizcha, ekologik nazoratning samaradorligi uni amalga oshiruvchi sub-

yecktning mustaqilligi va boshqa organlarning ushbu subyektlar faoliyatiga ta'siri mavjud emasligiga bog'liq. Shu bois boshqa davlat organlaridan mustaqil bo'lgan va to'g'ridan to'g'ri O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadigan hamda o'z faoliyatida Oliy Majlis va Prezidentga hisobdor bo'lgan ekologiya sohasidagi barcha davlat nazorati funksiyalarini o'zida jamlagan yagona davlat organini tashkil etishni maqsadga muvofiq hisoblaymiz.

Nazorat qiluvchi organning tashkiliy-huquqiy asoslarini tahlil qilgan A.K. Golichenkov nazorat organi o'ziga yuklangan vazifalarni faqat o'zi tekshiradigan tashkilotlardan mustaqil va tashqi ta'sirlardan xoli bo'lgan taqdirdagina xolis va samarali hal qila olishini ta'kidlaydi [2, 142-b.].

Ushbu fikrni to'liq quvvatlagan holda ekologiya sohasida nazoratni amalga oshiruvchi organ o'z faoliyatida Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va boshqa organlar, ayniqsa, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ularning tarkibiy tuzilmalarida nazoratni samarali amalga oshirish uchun ulardan to'liq mustaqilligini ta'minlash lozim. Bu mustaqillik moliyaviy va tashkiliy-tuzilmaviy mustaqillikni ham taqozo etadi. Mazkur masala yuzasidan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligida faoliyat yuritadigan xodimlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma ishtirokchilarining 90,3 foizi *"Prezident huzurida boshqa organlardan mustaqil alohida ekologik nazorat inspeksiyasini tashkil qilishga qanday qaraysiz?"* degan savolga *"Ijobiy"* deb javob bergan.

Fikrimizcha, muayyan nazorat qiluvchi organning moliyaviy ta'minoti ijro hokimiyati organi tomonidan hal qilinsa yoki faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjat Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlansa, shuningdek, ma'lum vazirlik tarkibida tashkil etiladigan bo'lsa, uning faoliyatiga bevosita ta'sir etish imkoniyati saqlanib qoladi. Bu esa, o'z navbatida, davlat ekologik nazorati samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois

ekologiya sohasida davlat nazoratini amalga oshiruvchi organ Vazirlar Mahkamasi yoki birtorta vazirlik tarkibida emas, balki Prezident huzurida tashkil etilishini maqsadga muvofiq hisoblaymiz. Natijada mazkur organ tomonidan ijro hokimiyati organlari faoliyatida ekologik qonunchilikka rioya etilishi ustidan samarali nazorat amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tuzilmasida Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi tashkil etilgan. Ushbu inspeksiya o'z faoliyatida vazirga bo'ysunadi va uning boshlig'i vazir taqdimomasiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi. Bundan tashqari, inspeksiya xodimlarining ish rejimi va yuklamalari hudud maydoni va aholi sonidan kelib chiqqan holda Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Nazorat inspeksiyasining mazkur huquqiy holati nazoratni to'liq amalga oshirish uchun imkoniyat bermaydi. Chunki inspeksiya o'z faoliyatida mustaqil bo'lmasdan, vazir hamda Bosh vazirning doimiy ta'siri ostida hisoblanadi. Misol uchun, inspeksiya tomonidan "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida davlat ekologik nazorati amalga oshirilayotganda nazorat obyektivligiga nisbatan ishonchsizlik vujudga keladi. Chunki ushbu universitet rektori va Vasiylik kengashining raisi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri hisoblanadi. Bunday holatda inspeksiyaning hududiy organi o'zi faoliyat yuritayotgan sohada boshqaruvni amalga oshiradigan vazir boshchiligidagi tuzilmani tekshirishi kerak. Ushbu vaziyatda nazoratning obyektivligini ta'minlash imkonsiz. Mazkur fikr ekologiya sohasida faoliyat yuritayotgan xodimlar tomonidan ham ma'qullangan. Xususan, ular o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning barchasi *"Sizning fikringizcha, ekologik nazoratni amalga oshi-*

ruvchi organ moliyaviy va tashkiliy jihatdan mustaqil bo'lmasa, nazoratdan ko'zlangan maqsadga erishish mumkinmi?" degan savolga *"Yo'q"* deb javob bergan.

Qayd etish joizki, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligiga bir vaqtning o'zida tartibga solish hamda nazorat qilish vazifalari yuklatilgani sohada manfaatlar to'qnashuvi holatlarini vujudga keltirmoqda hamda samarali davlat nazoratini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, Davlat ekologik nazorat inspeksiyasining ayrim vazirlik tizimiga kiruvchi tashkilotlar (Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi, "Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi" davlat muassasasi, sanitar tozalash korxonalari) faoliyati ustidan tegishli davlat nazoratini amalga oshirishi manfaatlar to'qnashuvi holatlariga olib kelishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasi birinchi qismini quyidagi tahrirda bayon qilishni maqsadga muvofiq hisoblaymiz: *"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi maxsus vakolatli davlat organidir"*.

Shuningdek, ushbu normaning ikkinchi va to'rtinchi qismlarini bekor qilish lozim. Ushbu normalarning bekor qilinishi asnosida hozirda bir nechta davlat boshqaruv organida mavjud bo'lgan ekologik nazorat funksiyalari yagona organga o'tkaziladi.

Bundan tashqari, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasi ikkinchi qismini quyidagi tahrirda bayon qilish taklif etiladi: *"Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi"*.

Davlat ekologik nazoratni amalga oshirish bo'yicha barcha vakolatlarning yagona organda mavjud bo'lishi hamda uning boshqa organlardan to'liq mustaqil bo'lishi uning

samaradorligi oshishiga hamda atrof-muhit barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ta’kidlash joizki, nazoratni amalga oshiruvchi organda mutlaq vakolatlar mavjudligi ushbu vakolatlarni suiiste’mol qilish xavfini vujudga keltiradi. Mazkur holatda ushbu organ mansabdor shaxslari qarorlari qonuniyligini ta’minlashda mutanosiblik prinsipi hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Chunki maxsus vakolatli organ tomonidan qo’llanadigan ta’sir chorasi sodir etilgan harakatlarga mos va yetarli bo’lishi lozimligini aks ettiradi.

Yuridik adabiyotlarda huquqshunos olimlar tomonidan mutanosiblik prinsipi ma’muriy organ tomonidan qo’llanadigan har bir ta’sir chorasi xususiy shaxs xatti-harakati va mavjud holatlarning og’irlashtiruvchi hamda yengillashtiruvchi holatlarini inobatga olgan holda mos va yetarli bo’lishi, ortiqcha qiyinchilik tug’dirmasligi lozimligida namoyon bo’lishi ta’kidlanadi [17].

Mazkur fikrga qo’shilgan holda davlat ekologik nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organ mansabdor shaxsining qarorlari qonuniyligini ta’minlashda ushbu prinsipning huquqiy asoslarini mustahkamlash lozimligini ta’kidlashimiz lozim.

Shu bois ekologik nazoratni amalga oshiruvchi subyektlarning o’z vakolatlarini suiiste’mol qilishining oldini olish maqsadida Rossiya Federatsiyasi tajribasidan [18] kelib chiqib “Ekologik nazorat to’g’risida”gi Qonunni “Nazorat qilinadigan subyektlar faoliyatiga aralashuvning mutanosibligi” prinsipi bilan to’ldirish maqsadga muvofiq. Shu sababli mazkur qonunga kiritilayotgan normaning quyidagi tahriri taklif etiladi:

“Majburiy talablar buzilishining oldini olishga va (yoki) bartaraf etish bo’yicha jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan qo’llanadigan ta’sir chorasi maxsus vakolatli organ tomonidan ko’zlangan qonuniy maqsadga erishish uchun mos va yetarli bo’lishi hamda manfaatdor shaxslarga imkon qadar qiyinchilik tug’dirmasligi kerak”.

Fikrimizcha, ekologik nazoratni amalga oshirish jarayonida qonuniylikni ta’minlashda maxsus vakolatli organlar tomonidan qonunchilikda belgilangan ta’sir choralarning mutanosib bo’lishi bilan birga ushbu organlarning diskretion vakolatlarini qonunchilikda aniqlashtirish lozim. Qonunchilikda ushbu holatlar ko’plab uchraydi. Xususan, “Tabiatni muhofaza qilish to’g’risida”gi va “Ekologik nazorat to’g’risida”gi Qonunlarda favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar hamda aholining hayoti va salomatligi uchun boshqa real xavf yuzaga kelishining oldini olish bilan bog’liq holda faoliyatni o’n ish kunidan ko’p bo’lmagan muddatga to’xtatib qo’yish maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Ushbu normalarda aholining hayoti va salomatligi uchun boshqa real xavf chegarasi aniq emas. Qonunchilikda ekologik nazorat sohasida maxsus organlar vakolatlari chegarasi aniq belgilanmagani nazorat ostidagi subyektlar faoliyatiga asossiz aralashuvlar hamda korruptsiya xavfini oshiradi. Mazkur masala yuzasidan fikr yuritgan J. Nematov ma’muriy ixtiyoriylik (diskretion vakolat)ni qonunda o’rnatilgandan boshqacha tarzda qo’llash uning noqonuniyligini keltirib chiqarishini ta’kidlaydi [19, 4–9-b.].

Shu sababli nazorat ostidagi subyektlar faoliyatiga davlat boshqaruv organlari mansabdor shaxslari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning oldini olishda yuqorida keltirilgan normalarda ma’muriy organ mansabdor shaxslari diskretsiyasini aniqlashtirish lozim. Maxsus vakolatli organ mansabdor shaxslari diskretsiyasini aniqlashtirish uchun yuqorida keltirilgan qonun hujjatlariga quyidagi jumlaning kiritish maqsadga muvofiq: *“...atrof tabiiy muhitning normativdan ortiq darajada ifloslanishi bilan bog’liq xavf yuzaga kelishining oldini olish maqsadida...”*

Ta’kidlash joizki, ekologik nazorat turli shakllarda amalga oshiriladi. Xususan, “Ekologik nazorat to’g’risida”gi Qonunga binoan,

davlat ekologik nazorati shakllaridan biri davlat ekologik ekspertizasi hisoblanadi.

“Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, ekologik ekspertiza deganda rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo‘jalik va boshqa xil faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash hamda ekologik ekspertiza obyektini ro‘yobga chiqarish mumkinligini aniqlash tushuniladi hamda davlat ekologik ekspertizasi sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi hisoblanadi.

Y. Pirogovaning ta’kidlashicha, davlat ekologik ekspertizasi rejalashtirilayotgan iqtisodiy faoliyatga nisbatan amalga oshiriladigan va dastlabki nazorat hisoblanadi [2, 142-b.].

Ushbu fikrga qo‘shimcha qilib aytish mumkinki, davlat ekologik ekspertizasi nafaqat iqtisodiy sohada, balki ijtimoiy va siyosiy sohada ham rejalashtirilayotgan faoliyatga nisbatan tatbiq etilishi lozim.

Nazoratning ushbu turi rejalashtirilayotgan iqtisodiy va boshqa tadbirlarning atrof-muhit normalari, qoidalari va talablari, texnik reglamentlari, standartlari va boshqalarga muvofiqligi kafolati hisoblanadi. Agar rejalashtirilayotgan faoliyat o‘rnatilgan ekologik talablarga zid bo‘lsa, vazirlik tomonidan mazkur faoliyat bilan shug‘ullanish taqiqlanadi.

Ta’kidlash lozimki, davlat ekologik ekspertizasi bir qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Xususan, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunda ekologik ekspertiza qaysi holatlarda o‘tkazilishi shartligi tartibga solingan, mazkur masala bo‘yicha umumiy qoidalar “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi Qonun bilan, davlat ekologik ekspertizasini o‘tkazish tartib-taomillari esa Vazirlar Mahkamasining “Atrof-muhitga ta’sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan Davlat ekologik ekspertizasi to‘g‘risida nizom, “Davlat ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni

tasdiqlash haqida”gi qarori va boshqa qonunosti hujjatlari bilan tartibga solingan.

Davlat ekologik ekspertizasi bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinganiga qaramasdan, ushbu masalada ko‘rib chiqilayotgan boshqaruv mexanizmini samarali amalga oshirishni qiyinlashtiradigan bir qator bo‘shliqlar mavjud. Birinchi navbatda, davlat ekologik ekspertizasi obyektlari ro‘yxati aniq keltirilgan va ushbu ro‘yxatda atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ko‘p jihatlar e’tiborga olinmagan. Xususan, ushbu ro‘yxatda normativ-huquqiy hujjatlar loyihasi davlat ekologik ekspertizasi obyekti bo‘lishi belgilanmagan. Mazkur masalani tadqiq qilgan Sh. Bahronovning qayd etishicha, “normativ-huquqiy hujjatlar loyihasi davlat ekologik ekspertizasi obyektlari qatoriga kiritilishi lozim” [20].

Mazkur fikrga mutlaqo qo‘shilgan holda ta’kidlash joizki, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekotizimni saqlash hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashda normativ-huquqiy hujjatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois davlat ekologik ekspertizasi obyektlari qatoriga normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ham kiritish lozim.

G. Uzakova aholi punktlarida qurilish qilishga oid munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me’yorlar atrof-muhitni va uning tarkibiy qismlarini muhofaza qilish va yerdan foydalanishni amalga oshirishda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlashga qaratilganini ta’kidlaydi [21, 76-b.].

Lekin normativ-huquqiy hujjatlarda mavjud ayrim normalar atrof-muhitni muhofaza qilishga emas, balki undan maqsadsiz foydalanishga va tabiatga zarar yetkazishga ko‘maklashmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasining “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi

salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to’g’risida”gi PF-6155-son Farmoniga muvofiq, noqonuniy kesilgan daraxt va butalar uchun uch yil davomida parvarishlash sharti bilan 100 tup ko’chat ekish majburiyati kiritilgan. Mazkur farmon ijrosini ta’minlash maqsadida qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-avgustdagi “Davlat o’rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni ekish, parvarish qilish va ulardan foydalanish tartibini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi 464-son qarorida kompensatsiyaviy ekish joylari, qoida tariqasida, hududlarda tashkil etilgan yashil bog’lar va yashil jamoat parklari, shuningdek, obodonlashtirish va ko’kalamzorlashtirish uchun mo’ljallangan boshqa hududlardan tanlanishi belgilangan.

Soddaroq qilib aytganda, quruvchi muayyan hududda qurilish ishlarini amalga oshirish uchun mazkur hududda mavjud bo’lgan daraxtlarni kesadi va qurilish ishlarini amalga oshiradi hamda keyinchalik yaratilgan yashil bog’larda kompensatsiya tarzida daraxtlar ekib beradi.

Bizning fikrimizcha, muayyan hududni cho’llantirish hisobiga daraxtlar ko’p bo’lgan yashil hududlarni yanada ko’kalamzorlashtirish maqsadga muvofiq emas. Shu sababli mazkur normani o’zgartirish hamda kompensatsiya evaziga ekiladigan daraxtlarni boshqa yashil hududda emas, balki kesilgan daraxtlar o’rnida ekilishini belgilash lozim. Shuningdek, kompensatsiya tarzida ekilgan daraxtlarni parvarishlash ustidan doimiy nazoratni o’rnatish mexanizmlarini ishlab chiqish kerak. Aks holda, kompensatsiya tarzida daraxt ekishdan ko’zlangan maqsadga erishib bo’lmaydi.

Davlat ekologik ekspertizasi obyektlari masalasida fikr yuritgan Y. Pirogova “atrof-muhitga ta’sir ko’rsatishga qodir bo’lgan har qanday rejalashtirilgan iqtisodiy va boshqa tadbirlar” davlat ekologik ekspertizasidan o’tkazilishi kerakligi to’g’risidagi majburiy norma bo’lishi lozimligini ta’kidlaydi [2, 142-b.].

Bizning fikrimizcha, davlat ekologik ekspertizasi obyektlariga umumiy ta’rif berish amaliyotda qonunni qo’llash bilan bog’liq muammolarni vujudga keltiradi. Xususan, vakolatli davlat organi mansabdor shaxslari tomonidan o’z vakolatlarini suiiste’mol qilish va har qanday faoliyatni davlat ekspertizasidan o’tkazishni talab qilish kabi ehtimollar kuchayadi. Bundan tashqari, davlat ekologik ekspertizasi obyektlari ro’yxati noaniqligi fuqarolar uchun ham, huquqni qo’llovchilar uchun ham qiyinchilik tug’diradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ekologik ekspertizani amalga oshirish subyektlari bilan bog’liq muammoli masalalar uchramoqda. Jumladan, “Ekologik ekspertiza to’g’risida”gi Qonunning 13-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, davlat ekologik ekspertizasi O’zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo’mitasining, Qoraqalpog’iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo’mitasining, viloyatlar va Toshkent shahri ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalarining ixtisoslashgan ekspert bo’linmalari tomonidan o’tkaziladi¹.

Mazkur organlar tomonidan davlat ekologik ekspertizasini amalga oshirish holati bo’yicha statistik ma’lumotlar va mamlakatimizdagi mavjud ekologik vaziyat bir-biriga qarama-qarshi hisoblanadi.

Davlat ekologik ekspertizasi markazining statistik ma’lumotlariga ko’ra, Davlat ekologik ekspertizasi markazi tomonidan 2021-yilda 15 057 ta xulosa berilgan bo’lib, shundan 14 845 tasi ijobiy, 212 tasi salbiy; 2022-yilda jami 19 304 ta xulosa berilgan bo’lib, shundan 18 798 tasi ijobiy, 223 tasi qayta ishlash uchun qaytarilgan va 283 tasi salbiy; 2023-yilda 18 989 ta xulosa berilgan bo’lib, shundan 18 289 tasi ijobiy, 475 tasi qayta ishlash uchun qaytarilgan va 225 tasi salbiy [22].

Mazkur statistik ma’lumotlarga ko’ra, davlat ekologik ekspertiza markazlari tomonidan

¹ Izoh: Qonunchilik hujjatlariga hozirga qadar o’zgartirish kiritilmagani sababli vazirlik nomi qonundan aynan keltirildi.

kelib tushgan murojaatlarning 99 foizdan ko'piga ijobiy xulosa berilgan, ularning fikricha, amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan faoliyat atrof-muhitga ta'sir qilmaydi. Lekin bugungi kunda mamlakatimizda mavjud ekologik vaziyat esa buning aksi ekanligiga ishora qiladi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi ekologik vaziyat sohada qat'iy choralarni ko'rishni talab qiladi. Aks holda, ekologik inqiroz va uning oqibatlari mamlakatning xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli davlat ekologik nazoratini amalga oshirish vakolatini mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa davlat boshqaruv organlaridan mustaqil bo'lgan idora tomonidan amalga oshirilishini ta'minlash lozim. Ushbu fikrni quyidagi misol yordamida asoslashga harakat qilamiz. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi davlat muassasasi 2023-yil 20-dekabr kuni davlat ekologik ekspertizasi xulosasini olish uchun Davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent shahri filialiga murojaat qilgan va markaz tomonidan 27-dekabr kuni ijobiy xulosa berilgan. Mazkur holatda Vazirlar Mahkamasining moliyaviy va strukturaviy jihatdan ta'siri mavjudligi sababli ekspertiza markazi tomonidan salbiy xulosa berilishi mumkinligini keskin kamaytiradi.

Yuqorida amalga oshirilgan tahlil asosida "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasi ikkinchi qismini quyidagicha tahrir qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: *"Davlat ekologik ekspertizasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat ekologik nazorat inspeksiyasi, viloyatlar va Toshkent shahri davlat ekologik nazorat inspeksiyalarining ixtisoslashtirilgan ekspert bo'linmalari tomonidan o'tkaziladi"*.

Atrof-muhitga zarar yetkazayotgan asosiy muammolardan yana biri davlat ekologik ekspertizasini amalga oshirish amaliyoti bi-

lan bog'liq. "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonunning 20-moddasiga muvofiq, davlat ekologik ekspertizasi natijalari bo'yicha xulosa tuzilib, u davlat ekologik ekspertizasi obyektini ro'yobga chiqarish mumkinligi yoki mumkin emasligi to'g'risidagi yakunlarni o'z ichiga olgan bo'ladi.

Ya'ni ekspertiza xulosasi ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. O'tkazilgan ekologik ekspertiza xulosalari tahlili manfaatdor shaxslarga taqdim etilgan ekspertiza xulosalarining aksariyati xulosada keltirilgan muayyan talablarni bajarish sharti bilan ekspertiza markazi tomonidan ma'qullanishini ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, ekspertiza xulosalari berishning ushbu amaliyoti noto'g'ri va uni deklarativ xarakterga aylantirib qo'yadi. Chunki ekspertiza xulosasining muayyan talablarni bajarish sharti bilan berilishi mazkur xulosani bergan ekspertning vujudga kelishi mumkin bo'lgan turli nizolardan xoli bo'lishiga xizmat qiladi va buni kafolatlaydi. Shu bilan birga, barcha javobgarlik manfaatdor shaxs zimmasiga yuklatiladi. Shu sababli ekspertiza xulosasini berishda obyekt qonunchilikda belgilangan talablarga javob bermagan taqdirda salbiy xulosa taqdim etish lozim. Manfaatdor shaxslar salbiy xulosada keltirilgan talablarni bajarganlaridan keyingina ijobiy xulosa berish amaliyotini joriy qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Aks holda, ekologik ekspertizaning ijobiy xulosasini olgan manfaatdor shaxslar unda keltirilgan shartlarni bajarmasligi oqibatida tabiatga katta zarar keltiradi.

Xulosalar

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar asosida aytish mumkinki, ekologik nazorat ta'sirchanligi uni amalga oshiruvchi vakolatli davlat organining moliyaviy va tashkiliy jihatdan to'liq mustaqilligiga bevosita bog'liq. Shu sababli boshqa davlat organlaridan mustaqil bo'lgan va to'g'ridan to'g'ri O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadigan hamda o'z faoliyatida Oliy Majlis va Prezidentga hisobdor bo'lgan ekologiya sohasidagi

barcha davlat nazorati funksiyalarini o'zida jamlagan yagona davlat organini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bundan tashqari, nazorat funksiyalari tarqoqligi uning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shundan kelib chiqib, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasi ikkinchi qismini quyidagi tahrirda bayon qilish taklif etiladi: "Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi".

Jismoniy va yuridik shaxslarni nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining no-qonuniy xatti-harakatlaridan himoya qilish maqsadida "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonunni "Nazorat qilinadigan subyektlar fao-

liyatiga aralashuvning mutanosibligi" prinsipi bilan to'ldirish maqsadga muvofiq. Shu sababli ushbu qonunga kiritilayotgan norma-ning quyidagi tahriri taklif etiladi:

"Majburiy talablar buzilishining oldini olishga va (yoki) bartaraf etish bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan qo'llanadigan ta'sir chorasi maxsus vakolatli organ tomonidan ko'zlangan qonuniy maqsadga erishish uchun mos va yetarli bo'lishi hamda manfaatdor shaxslarga imkon qadar qiyinchilik tug'dirmasligi kerak".

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi mamlakatimizda ekologik barqarorlikni ta'minlash, sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olishga hamda fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo'lishga oid konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Ikramov Sh.T. Ma'muriy huquq [Administrative law]. Tashkent Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2016, p. 507.
2. Pirogova Ye. Pravovyye i organizatsionnyye osnovy deyatel'nosti federal'nykh organov polnoy vlasti v sfere prirodopol'zovaniya i okhrany okruzhayushchey sredy [Legal and organizational foundations of the activities of federal bodies of full power in the sphere of nature management and environmental protection]. Moscow, 2010, p. 142.
3. Kolmykova A.V. Osnovnyye cherty gosudarstvennogo kontrolya (nadzora) v sfere tekhnicheskogo regulirovaniya [The main features of state control (supervision) in the sphere of technical regulation]. *Journal of Russian Law*, 2007, vol. 5.
4. Tikhomirov Yu.A. Kurs administrativnogo prava i sudoproizvodstva [Course of administrative law and legal proceedings]. Moscow, Yurinformtsentr Publ., 1998, p. 509.
5. Administrativnaya reforma v Rossii [Administrative reform in Russia]. Moscow, Yuridicheskaya firma «KONTRAKT», INFRA-M Publ., 2006, p. 45.
6. Administrativnoye pravo [Administrative law]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2010, p. 391.
7. Fayziyev Sh.Kh. Teoreticheskiye problemy pravovogo obespecheniya ekologicheskoy politiki Respubliki Uzbekistan [Theoretical problems of legal support for environmental policy of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, TSIL Publ., 2004.
8. Utegenov O.D. Jamoat ekologik nazoratini huquqiy tartibga solish [Legal regulation of public environmental control]. Tashkent, Science and Technology Publ., 2011.
9. Balashenko A.S., Makarova T.I., Lizgaro V.Ye. Ekologicheskoye pravo [Environmental law]. Minsk, 2015, p. 402.
10. Sarkisov O.R. Ekologicheskoye pravo [Environmental law]. Kazan', Center for Innovative Technologies Publ., 2014, p. 335.

11. Ekologicheskoye pravo [Environmental law]. Moscow, YEGE Publ., 2006, p. 234.
12. Golichenkov A.K. Ekologicheskii kontrol', teoriya, praktika pravovogo regulirovaniya [Environmental control, theory, practice of legal regulation]. Moscow, 1992, p. 205.
13. "Conditions of the law and work of prosecution bodies in the field of ecology" Information and analytical document of the NII Academy of General Prosecutor's Office of the Russian Federation: Proceedings of the Scientific and practical conference "Ecological safety: problems, research, solutions". Seliger, 2008, p. 2.
14. Ganyukhina O.Yu. Pravoye regulirovaniye ekologicheskogo kontrolya v Rossiyskoy Federatsii [Legal regulation of environmental control in the Russian Federation]. Saratov, 2007, p. 162.
15. Suvdan unumli foydalanish davr talabidir [Efficient use of water is the need of the hour]. Available at: <https://uznature.uz/ru/site/news?id=3019>
16. Gamidullayeva L.S. Povysheniye effektivnosti gosudarstvennogo ekologicheskogo sredstva na federal'nom i regional'nom urovne [Improving the efficiency of state environmental funds at the federal and regional levels]. 2015.
17. Ne'matov J. O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy ish yuridik institutini takomillashtirish [Improving the Institute of Administrative Procedure in the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Lesson Press, Publ. 2015.
18. Federation federal law on state control (supervision) and municipal control in the Russian Federation]. Available at: https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_358750/d265eee6ccbea0bbf4418cc8a0c7ab0ada100960/
19. Ne'matov J. Ma'muriy hujjatning qonuniyligi shartlari va ma'muriy ixtiyoridagi xatolar (diskretion organ) [Conditions for the legality of an administrative document and errors in administrative discretion (discretionary authority)]. *Review of Law Sciences*, 2020, pp. 4–9.
20. Bakhronov Sh. Organizatsionno-pravovyye osnovy ekologicheskoy ekspertizy proyektov normativnykh dokumentov [Organizational and legal bases for environmental assessment of draft regulatory documents]. Tashkent, 2023.
21. Uzakova G.Sh. Aholi punktlarida tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilishning huquqiy tartibi [Legal procedure for the use and protection of natural resources in settlements]. Tashkent, 2021, p. 76.
22. Davlat ekologik ekspertizasi markazining statistik ma'lumotlari [Statistical data from the State Ecological Expertise Center]. Available at: <https://eco-service.uz/sys/statistics?dateBegin=01.01.2021&dateEnd=31.12.2021®ionId=>

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

2024-yil 4-son

VOLUME 8 / ISSUE 4 / 2024
DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.4.